

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

6/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 5/6 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Умарханова Дилдора Шарипхановна</i> ЕВРОПА МИНТАҚАСИДА ЖИНОЯТ ИШЛАРИ БЎЙИЧА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ	9-14
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLAR VA MUALLIFLAR O'RTASIDAGI FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABARTLAR.....	15-26
<i>Собирова Нозимахон</i> СИТУАЦИОННОЕ ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ АКАДЕМИЧЕСКОЙ НЕДОБРОСОВЕСТНОСТИ: РОЛЬ ОБУЧЕНИЯ, МОТИВАЦИИ И ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ К ОЦЕНКЕ	27-36
<i>Йўлдошев Азизжон Эргаш ўғли</i> ЖАМИЯТ ВА ДАВЛАТ ИШЛАРИНИ БОШҚАРИШДА ИШТИРОК ЭТИШ ҲУҚУҚИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ	37-45
<i>Турсунов Ойбек</i> ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО ВОДНОГО ПРАВА	46-53
<i>Ismoilova Aziza Alisher qizi</i> MEHNAT MUNOSABATLARIDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASHDA GENDER HUQUQIY EKSPERTIZA AHAMIYATI VA HUQUQIY MUAMMOLARI	54-60
<i>Safarova Shaxlo Pulatovna</i> YANGI O'ZBEKISTONNING HOZIRGI RIVOJLANISH DAVRIO'ZGARISHLARINING INSON HUQUQLARI TA'LIMINI AMALGA OSHIRISH VA RIVOJIGA TA'SIRI	61-67
<i>Akbaralieva Mukhayo Karamatullo kizi</i> CRIMINAL LIABILITY FOR KIDNAPPING IN FOREIGN COUNTRIES	68-71
<i>Valijonov Daler Dilshodovich</i> PROBLEMS OF COMBATING CORRUPTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND PRACTICE OF EU MEMBERS	72-76
<i>Asadov Eldorjon Nizomiddin o'g'li</i> DAVLAT FUNKSIYALARI VA DAVLAT MOLIIYASI O'ZARO NISBATINING HUQUQIY MASALALARI	77-92
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i> VAKILLIK INSTITUTINING FUQAROLIK-HUQUQIY TAHLILI	93-103
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i> НАСЛЕДОВАНИЕ ПРАВ НА ОБЪЕКТЫ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ ...	104-109
<i>Рахмонова Мохичехра Нодирбек кизи</i> СУВЕРЕНИТЕТ И ЮРИСДИКЦИЯ В КИБЕРПРОСТРАНСТВЕ	110-118
<i>Худайбердиева Шоҳиста Акмал қизи</i> ЎЗБЕКИСТОН ВА ТУРКИЯ РЕСПУБЛИКАЛАРИ ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИК ВА	

ҲАМКОРЛИКНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШДАГИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР	119-129
---	---------

Alijonov Ayubjon Qobiljon o'g'li

RAQAMLI IQTISODIY HAMKORLIKNI XALQARO TARTIBGA SOLISH	130-136
---	---------

Fayzulloev Shohijaxon Jobirovich

XALQARO SAVDODA NIZOLARNI HAL QILISH KONSEPSIYASINING RIVOJLANISHI: TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	137-141
--	---------

Fayzullaeva Shakhlo Jumaniyaz kizi

ISSUES OF ONLINE DISPUTE RESOLUTION UNDER THE WTO	142-147
---	---------

Raimov Elbek Bahodirovich

OLIY TA'LIM TASHKILOTINING YURIDIK SHAXS SIFATIDAGI HUQUQIY MAQOMI.....	148-152
---	---------

Alieva Kamola Ravshanovna

OVERCOMING LEGAL BARRIERS TO ENHANCE WOMEN'S POLITICAL PARTICIPATION IN UZBEKISTAN	153-161
--	---------

Juraeva Asal

MECHANISM OF ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN	162-166
---	---------

Rakhmonov Otabek

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE REORGANIZATION OF JOINT STOCK COMPANIES	167-171
--	---------

Айбек Якубов

ПРАВОВОЙ ПОРЯДОК РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И МЕЖДУНАРОДНО-ЧАСТНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В РАМКАХ ВСТУПЛЕНИЯ ВО ВСЕМИРНУЮ ТОРГОВУЮ ОРГАНИЗАЦИЮ	172-178
--	---------

Zoilboyev Javlon Karimjon o'g'li

MA'MURIY SUD Hujjatlarini ijroga qaratishning huquqiy tartibi	179-184
---	---------

07.00.00 – TARIX FANLARI

Elmuratov Ortiq Oltiboy o'g'li

TURONNING YUNON-MAKEDONLARGA QARAMLIK DAVRI ME'MORCHILIK AN'ANALARI.....	185-192
--	---------

Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o'g'li

URBANIZATSIYA TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING TAHLILI	193-199
---	---------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Imamov Javokhir

LEVERAGING INTERNATIONAL BEST PRACTICES FOR ESTABLISHING MODERN TECHNOLOGICAL INDUSTRIAL ZONES IN UZBEKISTAN	200-203
--	---------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Shodmonova Shaxnoza Dadaxujayevna

"TAHDID" FENOMENI VA UNING SIYOSIY JIHATLARI	204-209
--	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Bawetdinov Mukhammeddin

UZAQBAY PIRJANOVNING PEYZAJ LIRIKASI 210-215

Соҳибова Зарнигор

ПЕЙЗАЖ ЛИРИКАСИДА ДАРАХТ ОБРАЗИ (ЗУЛФИЯ ИЖОДИ МИСОЛИДА) 216-219

Jonridova Sanobar Sherali qizi

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA IMPLIKATSION BIRLIKLAR TADQIQI 220-224

Sharipova Mokhidil

PHONETIC CHARACTERISTICS OF ONOMATOPOEIC WORDS IN ENGLISH

LANGUAGE..... 225-231

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Umarov Abdurasul Abdurahimovich

PROFESSIONAL VA TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA KOMPAS-3D
AVTOMATLASHGAN LOYIHALASH TIZIMINI QO'LLASH 232-237

Ro'ziyeva Nafosat Abdumumin qizi

YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA ABDULLA AVLONIYNING AXLOQIY
QARASHLARI 238-245

Qalandarova Maxliyo

MOLIYAVIY SAVODXONLIKKA O'RGATISHDA O'QUVCHILARINING O'QUVBILISH
FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH 246-251

Чинқулова Гулмеҳра Баҳроновна

ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БОШҚАРИШДА ЗАМОНАВИЙ
ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ..... 252-258

Ibragimova Venera Azadovna

TIBBIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KREDIT MODUL TIZIMI IMKONIYATLARI..... 259-264

Turgunov Shuxratjon Nozimjon o'g'li

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HAQORATNING FONETIK VA MORFOLOGIK SATHLARIDA
IFODALANISHI 265-269

09.00.00 – FALSAFA FANLARI-PHILOSOPHICAL SCIENCES**Received:** 10 August 2024**Accepted:** 15 August 2024**Published:** 25 August 2024*Article / Original Paper***"THREAT" PHENOMENON AND ITS POLITICAL ASPECTS****Shodmonova Shakhnoza Dadakhuzhayevna**

Researcher of Fergana State University

Abstract. This article analyzes the phenomenon of "threat" and its political aspects, influence on the development of society, narrow and broad threats. A complex aspect of quickly understanding the nature and impact of threats to spirituality is its connection to consciousness and worldview. It is a very difficult matter to get rid of any negative influences that have settled in a person's inner being.

Key words: threat, ideological threats, political threats, economic threats, external threats, internal threats, ideological threats, ideological threats.

"TAHDID" FENOMENI VA UNING SIYOSIY JIHATLARI**Shodmonova Shaxnoza Dadaxujayevna**

Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tahdid» fenomeni va uning siyosiy jihatlari, jamiyatning rivojlanishiga ta'siri, tor ma'nodagi va keng ma'nodagi tahdidlar tahlil qilingan. Ma'naviyatga qarshi qaratilgan tahdidlarning mohiyati va ta'sirini tez anglab yetishning murakkab jihati, uning ong va dunyoqarash bilan bog'liqligidir. Inson botiniga joylashib olgan har qanday salbiy ta'sirlardan ozod bo'lish juda murakkab masala hisoblanadi.

Kalit so'zlar: tahdid, mafkuraviy tahdidlar, siyosiy tahdidlar, iktisodiy tahdidlar, tashqi tahdidlar, ichki tahdidlar, g'oyaviy tahdidlar, mafkuraviy tahdidlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI6Y2024N25>

Kirish. "Tahdid" arabcha "do'q" qilish, "qo'rqitish", degan so'zdan olingan bo'lib, kundalik hayotda "birovni qo'rqitish, unga do'q, po'pisa qilish hamda biror falokatning, qo'rqinchli voqeaning sodir bo'lish xavfi", degan ma'nolarni anglatish uchun ishlatiladi[1]. Falsafiy ma'noda "Tahdid – inson, jamiyat va davlat hayoti hamda faoliyatiga nisbatan muayyan davr mobaynida aniq maqsadga yo'naltirilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy va umum-sayyoraviy salbiy omillarning tajovuzi tufayli aniq makon va zamonda vujudga keladigan xavf-xatar shakli, muayyan barqaror siyosiy-ijtimoiy va tarixiy vaziyatni ifodalovchi tushuncha"[2], bo'lsa, jamiyatning rivojlanishiga ta'siri, ya'ni tor ma'noda esa tahdid deb, makon va zamonda mavjud bo'lgan real jamiyatning ijtimoiy tuzilmalarini zaiflashtirishga, qolaversa, yemirishga qaratilgan shaxsiy, mahalliy, hududiy, mintaqaviy omillarning qo'rqitish, do'q, po'pisa qilishdan iborat bo'lgan hatti-harakatlariga aytiladi.

"Tahdid" deganda inson hayotiy faoliyati, umuman, yashashini chigallashtiruvchi hamda aniq tarixiy davr davomida aniq maqsad uchun yo'naltirilgan ijtimoiy strukturani, to'g'rirog'i,

davlatning siyosiy asosini zaiflashtiruvchi, qolaversa, yemirishga qaratilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy va nihoyat, umumsayyoraviy salbiy omillarning “kirib kelishi” tufayli yuz beruvchi makon va zamonda muayyan salbiy siyosiy ijtimoiy va tarixiy vaziyatni tushunish lozim[3].

Materiallar va metodlar. “Tahdid” fenomeni, uning siyosiy jihatlarini sayyoramizning turli mamlakatlarida ijod qilayotgan zamondosh tahlilchilar hamda siyosiy va jamoat arboblarning e’tiborini ham o’ziga tortib kelmoqda. Shu jumladan, Reyshauser, Nibur, Xantington, Kissinjer (AQSH), Toynbi (Angliya), Turen (Fransiya), Moiseyev (Rossiya), qolaversa “Rim klubi” va Paguosh tinchlik harakati kabi ilmiy-amaliy muassasalar rahbarlari va fidoiylari faoliyatini misol tariqasida keltirish mumkin[4].

Tahdidlar turli-tuman: ichki va tashqi, katta va kichik, makon nuqtai nazaridan esa uzoq va yaqin bo’lishi mumkin. Qanday bo’lishidan qat’iy nazar ularga nisbatan bamaylixtirlikka yo’l qo’yish yoki ularni “saralash” bilan ovora bo’lib vaqtni boy berish hollari uchraydi. XX asr voqealari shundan guvohlik berib turibdiki, tahdidlarni toifalashda ularni shartli ravishda iqtisodiy, sotsial, siyosiy, ekologik, demografik, mafkuraviy, harbiy, tabiiy – iqlimiy va ma’naviy tahdidlarga ajratib ko’rish va tahlil etish mumkin[5].

Muhokama va natijalar. Bugungi kunda o’zbek xalqining mustaqilligiga, uning tinch-osuda yashashiga, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma’naviy-madaniy tuzilmalariga solinayotgan tahdidlarni quyidagi tur va shakllarga ajratish mumkin.

Siyosiy tahdidlar: tashqaridan reaksiya ekstremistik partiya va boshqa uyushmalarning kirib kelishi va buzg’unchi g’oyalarni tarqatishi; har xil “rangli inqilob”lar bahonasida mamlakatning ichki ishlariga aralashish; diniy ekstremizm va separatizm; xalqaro terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, qurol-yarog’ savdosi, narkotik moddalarni tarqatish; hokimiyatning yuqori bo’g’inlarida korrupsiya va poraxo’rlikning avj olishi va boshqalar.

Iqtisodiy tahdidlar: “xufyona” iqtisodiyotni avjga chiqishi; iqtisodiy dezintegratsiya; banklarning to’lov qobiliyatini yo’qotishi; tashqi kuchlarning jahon iqtisodiyotiga yo’l qo’ymaslikka urinishi; raqobatga bardosh berolmaslik va ishsizlikning yuqori darajada mavjudligi va boshqalar.

Bularni shartli ravishda ichki va tashqi tahdidlarga ajratish mumkin.

1. Tashqi tahdidlar deb buzg’unchi kuchlarning mamlakatga tashqaridan kirib kelgan holda uning ijtimoiy tuzilmalarini yo’q qilishga, xalqni ma’naviy-mafkuraviy jihatdan parokandalikka uchratib, o’zlariga tobe qilishga qaratilgan xurujlarga aytiladi.

2. Ichki tahdidlar deb o’z vataniga, vatandoshiga zarar yetkazishga qaratilgan g’oya, hatti-harakatlarga aytiladi, odatda, nosog’lom mahalliychilik; yonidagilarni mensimaslik; vatandoshlarning haqiga xiyonat qilish; “ma’naviy emigratsiya” (baxtini o’z vatanidan emas, o’zga joylardan qidirish); odamlarni boy kambag’alga bo’lib muomala qilish; poraxo’rlik va korrupsiya; qo’pollik; ashaddiy millatchilik; merkantilizm — ortiqcha mol-dunyoga hirs qo’yish; befarqlik va loqaydlik; o’zligini anglamaslik va boshqa shu kabi illatlar shaklida bo’ladi[6].

Xo’sh, “tahdid” kuchmi yoki hodisa, omil yoxud jarayon; ularning negizida nimalar turadi; u xavf-xatardan nimalari bilan farq qiladi, degan bir qator savollarga javob qaytarish kerak bo’ladi.

Avvalo, shuni ta’kidlash lozimki, bu tushunchaning maqomiga aniq javob qaytarish murakkab masala. Chunki uning real holatda faqat qurol vositasidagi ko’rinishini aniq tasavvur etish mumkin. Boshqa barcha holatlarda ko’zga ko’rinmas, mavhum, zimdan amal qiladi. Uning

ana shu ta'siri moddiy borliq sifatida namoyon bo'lgandagina uni sezish, anglab yetish va qurish mumkin bo'ladi. Bu uzoq davom etadigan jarayondir.

Ana shu fikrimizga asoslanib aytish mumkinki, tahdidga moddiy kuch, omil va nazariy jarayon sifatida qarash mumkin. Qachonki, u moddiylik asosida (qurol, vosita ko'rinishida) yuzaga keladigan bo'lsa, kuch darajasida namoyon bo'ladi. Ma'naviyat, g'oya va mafkuralar ko'rinishida yuzaga kelgan tahdidlarning barchasi ong va dunyoqarashga joylashadigan bo'lsa, u asta-sekin moddiylikka aylanadi. Bu tahdidning nazariy jarayon sifatidagi jihati hisoblanadi. Ularning barcha ko'rinishi taraqqiyot uchun nihoyatda xatarlidir"[7]. Bunday ko'z ilg'amas tahdidlar qancha keng tarqalsa, o'zbeklarning g'oyaviy birligiga shuncha ko'p zarar yetkazadi, parokanda qiladi, hamjihatlik bo'lmaydi. G'oyaviy birligi mo'rt millatning davlat xavfsizligi ham mo'rt bo'ladi.

Rivojlanish nuqtai nazaridan qaraganda globallashuvni chetlab o'tish mumkin emas, u jamiyat taraqqiyotidagi tarixiy jarayondir. Ammo bugun globallashuvning jamiyatdagi muayyan qatlamlar va tuzilmalarga salbiy ta'sir ko'rsatishga yo'l qo'ymaslik insoniyat oldida turgan muhim vazifalardan bo'lib qolmoqda. Shunisi e'tiborliki, globallashuv jarayonining ta'siri bilan birga ma'naviy tahdidlar va turli yot begona madaniyatlarning "hujumi" kuchayib bormoqda. Ushbu tahdidlarning asosiy uch ko'rinishi mavjud va ular quyidagilardan iborat:

Birinchi ko'rinishi – mafkuraviy xurujlar bo'lib, bularga: shaxs fikrini buzish; shaxs dunyoqarashini aynitish; shaxs pozitsiyasini o'zgartirish kabi funksiyalar kiradi.

Ikkinchi ko'rinishi – g'oyaviy tahdidlar bo'lib, bular: shaxs xulq-atvorini aynitish; shaxs axloqiy munosabatlarini izdan chiqarish va shaxs muomalasini buzishdan iborat.

Uchinchi ko'rinishi – informatsion hujumlar va kibertahdidlar bo'lib, bular: shaxsga noto'g'ri ma'lumot berish; shaxs bilimini qoloqlashtirish va shaxs faoliyatini zaiflashtirishga qaratilgan hatti-harakatlardan iboratdir[8].

Mafkuraviy tahdid – ijtimoiy siyosiy harakat, oqim yoki siyosiy kuch o'z manfaatini ifodalovchi o'z mafkurasini qo'rqituv, zo'rlik yo'li bilan boshqalarga tiqishtirish. Mafkuraviy tahdidlar jamiyat, davlat yoki xalq, millat yoki elat taqdiriga xavf solib turgan, fojiali oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan mafkuraviy xavf – xatarlar majmuasi. O'zbekiston ham bunday tahdidlardan chetda qolayotgani yo'q. Fuqarolar ongida bu siyosiy ekstremizm, diniy fundamentalizm, etnik va millatlararo ziddiyatlar, korrupsiya va jinoyatchilik, mafkuraviy tahdidlar shaklida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, o'rta asr arab xalifaligini qayta o'rnatish g'oyasi hamda xalqaro terrorchilik va diniy ekstremizm markazlari orqali moddiy – g'oyaviy ta'minlanayotgan aqidaparastlar mafkurasi bugun mintaqamizdagi tinchlik va barqarorlik, uchun katta xavf bo'lib turibdi[9].

G'oyaviy tahdidlar inson ma'naviy olamida yot g'oyalar, qarashlar va maqsad – muddaolarni shakllantirishga intiladi. Bugungi kunda g'oyaviy tahdidlarning quyidagi ko'rinishlari namoyon bo'lmoqda: axloqiy buzuvchilik, zo'ravonlik, egotsentrizm, individualizm, "ommaviy madaniyat", milliy davlatning taraqqiyot modeliga ishonchsizlik uyg'otish, millatlararo nizolar keltirib chiqarishga urinish, yoshlar ongini zaharlash. Bundan ko'zlangan maqsad rivojlanayotgan davlatning moddiy va ma'naviy boyliklariga egalik qilishdir. Chunki g'oyaviy tahdidlar oxir – oqibatda davlatni inqirozga olib keladi.

Informatsion tahdidlar esa, insonning ongini zaharlash va shu tariqa o'zligiga ega bo'lmagan olomonni tarkib toptirishni ko'zlaydi. Bugungi kunda informatsion tahdidlar asosan internet vositasida kirib kelmoqda. Hozirgi davr dunyo miqyosida mafkuraviy jarayonlar misli

ko'rilmagan darajada globallashib borayotgan davrdir. Axborot tarqatish jarayoni butun Yer yuzini qamrab olmoqda. XX asrning so'nggi o'n yilligida yaratilgan mo'jiza xalqaro kompyuter tarmog'i, ya'ni internet tizimining vujudga kelishi va u orqali axborot almashinuvi jarayonlarining tezlashib borishi bugungi kunda g'oyaviy ta'sir o'tkazish ko'lamini kengaytirmoqda[10].

Mafkuraviy tahdidlarni mafkuraviy qurol vazifasini o'tashi jihatidan ichki va tashqi tahdidlarga ajratish mumkin.

Ichki mafkuraviy tahdidlar deb mamlakat ichkarisida yashovchi mehnatkash va zahmatkash aholining tanasiga zulukday yopishib olgan nosog'lom kuchlarning shaxs, elat, millat, davlat va jamiyatning boyligini tekinga o'zlashtirib olish evaziga yaxshi yashashga urinish ilinjida, uning izchil taraqqiy etishiga katta zarar yetkazishga qaratilgan jinoyatkorona hatti-harakatlariga aytiladi[11].

Bunday tahdidlar odatda, nosog'lom mahalliychilik; yonidagilarni mensimaslik; vatandoshlarning haqiga xiyonat qilish; "ma'naviy emigratsiya" (baxtini o'z vatanidan emas, o'zga joylardan qidirish); odamlarni boy kambag'alga bo'lib muomala qilish; poraxo'rlik va korruptsiya; qo'pollik; ashaddiy millatchilik; merkantilizm — ortiqcha mol-dunyoga hirs qo'yish; befarqlik va loqaydlik; o'zligini anglamaslik va boshqa shu kabi illatlar shaklida bo'ladi.

Tashqi mafkuraviy tahdid – bu mamlakatimizdagi tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik tizimini izdan chiqarish uchun tajovuzkor g'oya tarafdorlari tomonidan tashqaridan turib mamlakatimiz ichkarisiga tomon xuruj qilishidir. Bunday tahdidlar xalqaro terrorizm, ekstremizm, neokommunizm, shovinizm, panamerkanizm, panturkizm, panslovyanizm kabi shakllari "dindosh", "millatdosh", kabi maslaklar birligi tarzida amalga oshiriladi.

Tashqi mafkuraviy tahdidlardek, ichki ma'naviy-ma'rifiy tahdidlar ham jamiyat taraqqiyoti uchun juda katta to'siqdir. Bu ichki mafkuraviy tahdidlarga loqaydlik, beparvolik va befarqlikni kiritish mumkin.

Loqaydlik – inson, jamiyat, millat ishiga beparvo va sovuqqonlik bilan yondashish, munosabatda bo'lishni ifodalovchi ma'naviy-g'oyaviy illat. U muayyan kishining gohida o'z hayoti, o'zgarlar faoliyati, atrofida ro'y berayotgan voqea-hodisalarga befarqligi va munosabatsizligidir. Hayotiy pozitsiyaning aniq emasligi, dolzarb vazifalardan o'zini olib qochish, el-yurt, jamiyat va millat tashvishlaridan chetda turish holatlari loqaydlik ko'rinishlaridir. Chunki, "Ma'naviyatimiz uchun eng katta xavf – bu aksariyat odamlarimizdagi loqaydlik va beparvolik kuchayib borayotganida, desak, bu ham ayni haqiqat"[12].

Beparvolik (befarqlik, e'tiborsizlik, loqaydlik) — kishidagi o'zgarlar hayotiga, atrof voqelikka e'tiborsizlik, loqaydlikdir. Ayniqsa, davlat va jamiyat hayotida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'layotgan, Vatan taqdiri hal bo'layotgan pallalarda kishilardan yuksak faollik, mas'uliyat talab qilinganda befarqlik nafaqat illat, balki jinoyat hamdir. Loqaydlik va beparvolik o'zaro aloqadordir.

Befarqlik – jamiyatga, ijtimoiy hayotga, atrofdagi insonlar va hodisalarga nisbatan biror-bir qiziqish va aniq ma'naviy-hissiy munosabatning namoyon bo'lmasligini ifodalaydigan tushuncha. Befarqlikni o'zini tutib turish, vazminlik holatidan farqlash lozim. Vazmin odam o'zini idora qila olishi hisobiga qalbidagi tug'yonlarni bosib tura oladi va o'zining mustahkam irodasini namoyon qiladi.

Beparvo va loqayd odam jamiyatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, bunyodkorlik ishlarini his qilishdan yiroq. Shu bois g'animlar bunday odamlardan o'zlarining

g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanadilar va jamiyatga juda katta zarar keltiradilar. Loqayd insonlar mamlakatimizda yaratilayotgan imkoniyatlardan foydalanishga harakat qilmaydilar, ular uchun kelajakka intilib yashash, xalq farovonligi yo'lida kurashish, ezgu amallar va savob ishlarni amalga oshirish begonadir.

Ichki mafkuraviy xavf-xatarlarga yana korrupsiya, urug'-aymoqchilik, mahalliychilik va millatchilikni kiritish mumkin.

“Korrupsiya demokratik institutlar va qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy adolat, qonun ustuvorligiga putur yetkazib, izchil barqaror rivojlanish, iqtisodiy o'sishga, jamiyat va davlat barqarorligi va xavfsizligiga jiddiy tahdid tug'dirmoqda. Korrupsiya allaqachon lokal muammodan butun dunyo hamjamiyati va barcha mamlakatlar iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, transmilliy hodisaga aylangan. U uyushgan va transchegaraviy jinoyatlar uchun ham imkoniyat yaratib bermoqda”[13].

Ichki mafkuraviy tahdidlardan yana biri **urug'-aymoqchilikdir**. Ko'pchilik lug'atlarda berilgan ta'riflarga ko'ra, urug'-aymoqchilik feodal jamiyatlarga xos hodisadir. Bu qon-qarindoshlik aloqalari bilan bog'langan odamlarning birligidir[14].

Navbatdagi ichki mafkuraviy tahdidlardan biri mahalliychilikdir.

Mahalliychilik – kishilarda o'zlari tug'ilib o'sgan joy bilan bog'liq holda shakllanadigan hududiy yaqinlik tuyg'usining salbiy shaklda namoyon bo'lishi. Mahalliychilikning har qanday ko'rinishi jamiyat uchun xavfliligini tushungan holda uning kelib chiqishini oldini olish, va binobarin, bu illatga yo'l qo'ymaslik muhim vazifa hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirishda milliy istiqlol mafkurasining o'rni beqiyosdir. Bu mafkura o'z ahamiyatiga ko'ra jamiyatimizda yashovchi barcha xalqlar, millatlar va elatlarning asosiy maqsadlari va orzu-umidlarini amalga oshirishga xizmat qiladi, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik g'oyalariga qarshi kurasha oladi. U xalqning ma'naviy kamolotiga, ma'rifatiga asoslanib, kishilar ongida umummilliy g'urur tuyg'usi bilan birga, mamlakatimizning barcha hududlarida yashaydigan vatandoshlarimizning madaniyati va qadr-qimmatini hurmat qilinishini ta'minlashga da'vat etadi.

Millatchilik. Bu – boshqa millat kishilari manfaatlari ehtiyojlariga bepisandlik bilan qarash, xudbinlarcha munosabatlarni ifodalovchi g'oyaviy-nazariy qarashlar tizimi va amaliyoti. Millatchilik — o'z millati manfaatlarini, ehtiyojlarini boshqa millat manfaatlarini, ehtiyojlarini kamsitish yordamida qondirishdir[15].

Xulosa. Millatchilik chinakam milliy g'ururni shakllantirmaydi. Milliy g'ururni millatchilik bilan tenglashtirish millatlararo munosabatlar madaniyatiga g'ov bo'ladi. Milliy g'urur bir millatga xos bo'lgan xususiyatlarni rivojlanishiga, ularning kelajak hayotini yuksaltirishga qaratilgan intilish bo'lsa, millatchilik boshqa millatlar, elatlar manfaatlari, ehtiyojlarini nazar-pisand qilmaslik, ularning huquq va erkinliklarini chegaralashga qaratilgan faoliyat, harakatdir. Millatchilik siyosiy tusga kirsa, kuchli salbiy yo'nalish kasb etishi mumkinligini ta'kidlash zarur. Bu davlat va millat xavfsizligiga, mintaqaviy va keng ko'lamdagi xavfsizlikka ancha kuchli tahdidga aylanib ketishi mumkin.

Fikrimizcha, ma'naviy tahdidlarning zamonaviy ko'rinishlariga quyidagilarni kiritish mumkin: “ommaviy madaniyat”ni targ'ib etish, missionerlik, prozelitizm, diniy aqidaparastlik (Islom xalifaligini tiklash, vahhobiylik, akromiylik, tavba, Islom uyg'onish partiyasi, Islom lashkarlari, ISHID kabi guruh va to'dalar), Yosh mustaqil davlatlarning sobiq ittifoqqa birlashtirish g'oyasi, tariximizni, milliy qadriyatlarimiz va dinning mohiyatini soxtalashtirishga urinishlar, axborot tahdidi va boshqalar tashqi mafkuraviy tahdidlar sirasiga kiradi.

Xulosa qilganda, hozirgi vaqtda jamiyatimizda yuksak ma'naviyat va ma'rifatni qaror toptirishning nihoyatda puxta o'ylangan, ilmiy asoslangan shunday mexanizmini yaratish lozimki, toki u hozirgi davrimizning barcha talablariga mukammal javob bera olsun.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya – taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: Fan, 2017. – B. 315.
2. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar va izohli lug'at. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. – B. 546-547.
3. Paxrutdinov.Sh.“Tahdid” tushunchasi: nazariya va amaliyot. T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1998. – B. 6-8. (<https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/10418-2021-04-16-04-29-20>).
4. Paxrutdinov.Sh.“Tahdid” tushunchasi: nazariya va amaliyot. T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1998. – B. 6-8.
5. <https://soglom.uz/archives/> Ashurova G. Mafkuraviy tahdid: endi himoyalanmaymiz, balki qarshi kurashamiz
6. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya – taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: Fan, 2017. – B. 316.
7. Otamuratov S. Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfeizlik. -Toshkent: O'zbekiston, 2013. – B. 259.
8. Jamolov L. Globallashuv va ma'naviy tahdidlar // “Globallashuv sharoitida vatanparvarlik tarbiyasining ma'naviy-ma'rifiy texnologiyalari” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to'plami. – Toshkent: 2019. – B. 25.
9. Ramatov J.S., Raximova M.I., Hasanov M.N. Mafkuraviy tahdidlarni oldini olishda islomiy qadriyatlarning o'rni. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 6 | 2022. – B. 1033. https://t.me/ares_uz
10. Ramatov J.S., Raximova M.I., Hasanov M.N. Mafkuraviy tahdidlarni oldini olishda islomiy qadriyatlarning o'rni. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 6 | 2022. – B. 1034. https://t.me/ares_uz
11. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya – taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: Fan, 2017. – B. 319.
12. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 269.
13. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 422.
14. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya – taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: Fan, 2017. – B. 325.
15. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya – taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: Fan, 2017. – B. 327.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/6 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).